



YOSH DAVRLARIDA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

G'oziyeva Barno Karimjonovna

Namangan viloyati Mingbuloq tumani
MMTB ga qarashli 41-maktab psixologi

Bo'ronova Gulchehra O'ktamovna

Namangan viloyati Mingbuloq tumani
MMTB ga qarashli 9-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot va uning yosh davrlarida o'ziga xos rivojlanishi, jamiyatda tutgan o'rni hamda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi o'zaro ijtimoiy muloqot va manaviy yetuk shaxsni tarbiyalashdagi muhim fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, madaniyat, muloqot ko'nikmalari, yoshlar, jamiyat, shaxs, muloqot, faoliyat, kommunikatsiya.

Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Shaxs ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatib, bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Insoniy munosabatlarda dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligida namoyon



bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi. Shuning uchun ham muloqot, uning jihati, tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi. Muloqot hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlanishini o'z ichiga olib, bunday ma'lumot almashinuv muloqotning kommunikativ jihati sifatida ta'riflanadi. Insonlar o'rtasidagi muloqot va uning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar. Muloqotning ikkinchi jihatida – munosabatga kirishuvchilarning nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki xatti-harakatlar bilan ham almashinuvi nazarda tutilib, bu muloqotning interaktiv jihati deb yuritiladi. Nihoyat, muloqotning uchinchi jihati pertseptiv deb atalib, bunda munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlari tushuniladi. Shunday qilib, muloqot jarayonida shartli ravishda uchta, ya'ni kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (hamkorlikda harakat qilish) va pertseptiv (o'zaro birgalikda idrok etish) jihatlarni alohida ko'rsatish mumkin. Ana shu uchta jihatning birligi muloqot jarayonida hamkorlikdagi faoliyat va jalb etilgan odamlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqadi. Muloqot bo'yicha o'rganilgan manbalarning tahliliga ko'ra shaxsning kamolga etishida muloqot muhim omil sanaladi. Ayniqsa shaxs bilim ko'nikma tasavvur tushuncha fikrlar imkoniyatiga ega bo'lish uchun albatta insonlar bilan muomala munosabatga kirishishi lozim. Shu bois allomalarimiz tomonidan keltirilgan fikrlar hozirgi kun yosh avlodni tarbiyalashda dasturi-amal vazifasini o'tab kelmoqda. Muloqot tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o'quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o'zini - o'zi mukammallashtirish, o'zini - o'zi ruyobga chiqarish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini - o'zi baholash, o'ziga - o'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. SHuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-



bosqich egallab borish - bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir. Muloqotga kirishuvchilarning o'zaro yaqinligi bilan, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, javob tariqasidagi his-tuyg'ular va afzallikning o'zaro taxmin qilinishi bilan belgilanadigan o'zaro munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror individual-tanlash tizimi sifatidagi do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshqoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylilikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun - qoidaga amal qilishini taqozo etadi. Do'stona muloqot o'rnatish va do'st tutinish muammosi o'spirinlik yoshida ayniqsa dolzarb masalaga aylanadi. Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

- 1) Hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.
- 2) Muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.
- 3) Insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.
- 4) Shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga etkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma'lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma'lum tartibda aloqaga kirishishga



yo'naltiruvchi, ularning emotsional holatlarni(mamnunlik, shodlik, g'azab, qayg'u va shu kabilar) haqidagi ma'lumotlar o'tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga etkaziladi va shaxslararo aloqalar o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Biz, ochiq ko'ngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda, g'azablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan o'zimizni boshqacha tutamiz. Bir mavjudotdan boshqasiga etkaziladigan tashqi muhit holati haqidagi ma'lumot, masalan, xavfdan yoki yaqin atrofda ijobiy, biologik muhim omillarning, deylik, ozuqaning mavjudligi haqidagi ogohlantirish muloqot mazmuni bo'lishi mumkin. Odamda muloqot mazmuni hayvonlarnikiga qaraganda ancha kengroqdir. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, orttirilgan tajriba, layoqatlar, malaka va ko'nikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti ko'p jismli bo'lib, ichki mazmuniga ko'ra turli-tumandir.

Muloqot maqsadi – bu insonda ushbu faollik turi yuzaga keladigan sabab. Hayvonlarda muloqot maqsadi bo'lib boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o'z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba'zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar etib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin.

Bolalarda muloqot maqsadlari soni ko'payadi. Ularga yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va etkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lsa, odamlarda ular ko'plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o'sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi. Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.



Xulosa o'rnida Bolaning ruhiy taraqqiyotida ontogenezning dastlabki bosqichi davridagi uning kattalar bilan muloqoti, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Muloqotda, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish, keyinchalik vikar o'rganish, so'ngra esa, verbal o'rganish – iborali qoidalar orqali bolaning hayotiy tajribasi orttirilib boriladi. U bilan muloqotda bo'ladigan odamlar bola uchun bu tajribani tashuvchi bo'lib xizmat qiladi va muloqotdan tashqari, boshqa hech qanday vosita yordamida bunga erishib bo'lmaydi. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so'zlar, qarashlar, qo'l siqishlar o'ta muhimdir, ba'zida ular ko'p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Groxiyev, V.S. —Pedagogik muloqot madaniyati. — O'qituvchi uchun kitob M.: Akademiya, 2007 yil.
2. Darenskaya, L. —Muloqot madaniyatini tarbiyalashl.
3. Zanina, L.V. Menshikova N.P. —Pedagogik mahorat asoslari —- Rostov-na-Don, 2003.
4. Ilyin, E.N. Muloqot san'ati -M.: Akademiya, 2006 yil.